

Ihombayeva Mahliyo Umidjon qizi

UrDU O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

“SHAYTANAT” ASARIDA ZAYNAB OBRAZINING TASVIRLANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malikning “Shaytanat asari qahramoni Zaynab obrazi va uning o‘zbek milliyliigi, ibo-hayosi, or-nomus masalalaridagi qarashlari tahlilga tortilgan.

“Shaytanat” asari desak ko‘z oldimizga dastlab jinoiy to‘da va uning yo‘lboshchisi Asadbek obrazi gavdalanadi. Ammo bu degani asar faqat shu qahramon bilan bog‘liq ekanligini anglatmaydi. Unda qahramonlar bir-biri bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular yordamida qaysidir masalaga yechim topiladi. Romanda bosh obrazlardan biri hisoblangan Zaynab timsoli ham juda mukammal tarzda tasvirlangan. Garchi barcha yovuzlik, mudhish hodisalar uning atrofidida bo‘layotgan bo‘lsa ham u bu dunyoning qora tomonlaridan bexabar holda ulg‘ayayotgan bir qiz edi. U uchun eng qiziqarli joy kutubxona va eng yaqin do‘stlari kitoblar edi. O‘z hayollari og‘ushida yomonlikdan yiroqda bo‘lgan o‘z dunyosida yashardi. Eng sevimli asari Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar”ning ilk mutolaasidayoq uni haqiqiy oshnosiga aylangan va o‘zida Kumush hislatlarini yoritishga urinardi.

«Siz o‘shami?...» Zaynab bu lahzani qancha kutdi? Yettinchi sinfdaligida «O‘tgan kunlar»ni birinchi marta o‘qib chiqqan edi. Yettinchi sinfdaligida kitobdagi Zaynabni qarg‘ab, Kumushga o‘zicha motam tutdi. O‘ziga Zaynab deb ism qo‘ygani uchun ota-onasidan xafa bo‘ldi. Romanni ikkinchi yo uchinchi marta o‘qiyotganida onasiga yig‘ladi. «Otimni o‘zgartiraylik», deb yalindi. Manzura qizining bu qilg‘idan kuldi. Quchoqladi, boshini siladi, peshonasidan o‘pdi. «Aylanay qizim, bu yomon ism emas, kitobda yozaverishadi-da», dedi. Keyin qiziga qiziqib o‘zi ham kitobni o‘qib chiqdi. O‘zi ham yig‘ladi. «Oyijon, ismimni Kumush deb o‘zgartirmaysizlarmi, Kumushga o‘xshab o‘lib ketsam ham mayli edi...» Bu Zaynabning ko‘nglidan kechgan gap. Uni tilga chiqarib aytolmaydi, uyaladi. Chunki kitobdagi Kumushning Otabegi bor.... orada totli damlar bor. Zaynabning orzulari ortida hozircha yashirin bo‘lmish shundayin hislar borligini otasi bilib qolsa — sharmandalik emasmi?¹ Zaynabning orzulari bisyor edi. Huddi Kumushbibi kabi o‘z Otabegi bilan bo‘lishni xohlardi, ammo o‘sha mash‘um kun uni barcha orzularini yo‘qqa chiqardi. Zaynab o‘g‘irlandi.

Asadbek o‘zini qo‘lga olishga harakat qildi:

— Topildimi?

Manzura «ha» deganday bosh irg‘ab, yig‘lab yubordi.

— Tirikmi?

Asadbek nima uchun bunday deb so‘raganini o‘zi ham bilmadi.

— Xudoga shukr, tirik...— Manzura shunday deb labini tishladi.

Shu so‘z Asadbekka jonini qaytarib berdi. Shart o‘rnidan turib xotiniga yaqinlashdi-da, uni ikki yelkasidan tutib, silkidi:

— Unda nimaga yig‘laysan, nimaga vahima qilasan?

Manzura boshini egib, yig‘lab yubordi. Asadbek, shu paytgacha xotinini chertmagan

¹ Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “O‘ME”, 2018. 414 bet..:

odam, tarsaki qo‘yganini o‘zi ham sezmay qoldi.

— Gapir, deyaqman!

O‘zini qo‘lga olish uchun Manzuraga shu tarsaki kifoya edi.

— Mengina o‘lay... qizingiz... aytolmayman, dadasi...

— Gapir, xuddi bo‘g‘ib tashlayman, — Asadbekning ovozi tahdidli, bu shunchaki bir po‘pisaga o‘xshamas edi.

— Qizingizni bir ahvolda tashlab ketishdi...

Aynan shu lahzada barchasi tugadi. Qiz bola nafaqat xonadonining, balki, ota-onasi, aka-ukalarining ham or-nomusi hisoblanadi. Asadbekni eng ko‘proq azobga soladigan narsa ham shu gunohkorlik hissi edi. O‘rtog‘i Jalilning “Xudodan qaytibdi” degan ta‘nasini eshitgandayoq ruhan eziladi. Jalilni gap kelganda ayab o‘tirmasligini bilsa-da, dili og‘riydi. Bir paytlar qilgan qilmishlari, gunohlari uchun nahotki, farzandlari javob bersa?! Bunday mudhish o‘ylar unga sira tinchlik bermaydi. Shuurini turli o‘ylar girdobi egallab olgan, ikki qutb kabi ikki xil fikr, ikkilanishlar sirtmog‘i ruhini soniya sayin bug‘ib borar, nafasini qisar edi. “Qizining o‘g‘irlanishi – uning nomusiga tegmagan taqdirda ham – ota-ona nomusining toptalishi bilan barobar. Zaynab esa bu holatda otasining qilgan gunohlari uchun javob berayotgani uchun otasini zarra ham ayblamaydi. O‘z orzularidan kechgan qiz Olloh bergan taqdirga ko‘nib yashaydi. Ammo shunday bo‘lsa ham endi uni dilida orzudan-da armon ko‘p edi. O‘zi orzu qilgan kelinlik quvonchi, suyakli rafiqa bo‘lish u uchun yakunlangandek edi. Shu paytgacha o‘z Otabegi deya hayolida o‘sha jingalaksoch yigitni o‘ylayotgan bo‘lsa endi uni o‘ylashga ham uyalardi.

«...kuyov kelar edi: ikki tomonni sirib olgan xotin-qizlar o‘rtasidan Otabek kelar edi...»

Otabek — shubhasiz, jingalaksoch yigit.

«...uning ketidan Oftob oyimning egachisi isirig‘ tutatar edi...»

Demak, isirig‘ni xolasi tutatadi.

«...xotinlar qo‘llarida sham bilan bunga qarar va uzatib qolur edilar...»²

Ayol kishi nafaqat bitta otaning yoki bitta hovlining balki butun jamiyatning nomusi. Zaynab esa buni juda yaxshi biladi. Asarda qora bo‘yoqlar quyuq tasvirlangan. Buni asosan ayollar obrazida ko‘rishimiz mumkin. Asardagi bo‘yoqlar kimgadir quyuq, kimgadir esa xira tuyulishi mumkin. Bu o‘rinda u yoki bu odamning hayotni qay darajada anglashi, voqealarga munosabati ham muhim. Masalan, Zaynabning taqdiri birovni hayajonga solsa, boshqa bir kitobxon «bunaqa giyohvand ayollarni o‘zim ham ko‘rganman» deb befarq qarashi mumkin. Dunyoda necha milliard odam yashasa, shularning barmoq izlari bir-biriga o‘xshamaydi. Demak, shuncha milliard barmoq izlari mavjud. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, odamlarning fe‘l-atvori, his-tuyg‘ulari, dunyoni anglamak zehnlari ham bir-biriga o‘xshamaydi. Zaynab garchi bu yo‘lga zo‘rlik bilan kirib qolgan bo‘lsa ham chiqishni eplay oldi. Zaynab obrazi haqida muallifni o‘zidan so‘rashganda ham: “«Shaytanat»da, boshqa asarlarda ham havas qilish mumkin bo‘lgan ayollar kam tasvirlanganining sababi bor. Kamina, takror aytaman, shaytonlar boshqaradigan olamni, qora bo‘yoqlarni qalamga olganman. Bu olamda yaxshi ayollarning ko‘p bo‘lishi mumkinmi? Ochig‘i, men yomonlarni tasvirlaganimda yuragimda og‘riq turardi. Bularni yozmaslikni istardim. Lekin na iloj? Ibrat ma‘nosida ham yozish kerak edi. Shuning natijasida ayrim muxlislarimiz «Asaringizni o‘qigan odam sizni qahri qattiq inson deb o‘ylaydi» degan aybnomani ham yelkamga ilib qo‘yishdi. Holbuki, bu yanglish xulosa. O‘zingiz bilasiz, men qahri qattiq, beshafqat emasman. Hayotning o‘zi beshafqat. Mening vazifam o‘sha beshafqatlikning bayonini qog‘ozga ko‘chirish, xolos.

² O‘sha manba.

Zaynabning ruhiy azoblarini qog‘ozga ko‘chirayotganimda qalb og‘rig‘idan qiynalganman”³, - deya javob beradi. Yana bir masala orqasidan Zaynabning taqdirini ko‘rsak: agar u, aytaylik, Gloriya yoki Natasha bo‘lganida majruh erini tashlab, suygani bilan qovushmog‘i mumkin edi. Lekin kimning qizi bo‘lishidan qat‘i nazar, u o‘zbek ayoli! O‘zbek ayollari esa kamdan-kam hollarda erlaridan yuz o‘giradilar. Erga ko‘ngillari bo‘lmasa ham ularni og‘ir ahvolda tashlab qo‘ymaydilar. Agar adib Zaynabni biz kitobxonlarning istagiga ko‘ra Jamshid bilan qovushtirib qo‘ysa, o‘zbek ayollarining beqiyos fazilatlariga xiyonat qilgan bo‘lardi.

Adabiyotshunosligimizda ayollarni turli xil jabhalarini ochuvchi, ularning ibo-hayosini tarannum etuvchi asarlarimiz bisyor. Umuman olganda, hozirgi o‘zbek nasri janr va badiiy-uslub jihatdan nihoyatda turfa xil edi. Ayollar obrazi nafaqat o‘zbek adabiyotshunosligi arenasida, balki dunyo adabiyotshunosligi va san‘atshunosligi hamda boshqa ko‘plab sohalarda muhim muammo sifatida o‘rganilishi dalillandi. Ayol dunyoni tebratuvchi, naslni yaratuvchi, go‘zallik, aql va donishmandlik timsoli sifatida qadim zamonlardan beri o‘rganib kelinadi. Hozirgi o‘zbek nasridagi ayollar mavzusi bilan bog‘liq jarayonlar aslida xalq ijodi bilan ham bog‘lanadi. Hozirgi o‘zbek nasrida yaratilgan Ayollar obrazi va uning inja ruhiyatini tadqiq etish va o‘zbek ayolining turfa qiyofalari turli davrlarda turlicha tasvirlandi. Masalan, ezilgan, haq-huquqsiz ayollar, mafkuralashgan jamoatchi ayol, ziyoli, erkin fikrli ayol qiyofalari yuz yildan ziyod o‘zbek nasriy asarlari taraqqiyotida namoyon bo‘ldi. Yuqorida tahlil qilgan “Shaytanat” asari garchi aynan ayol timsoliga bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, ma‘lum bir qismida shunday jihatlarni Zaynab, Manzura obrazlari orqali uchratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “O‘ME”, 2018. 414 bet..:
2. Anvar Namozov. Tohir Malik gurunglari. O‘zbekiston NMIU, 2016.

³ Anvar Namozov. Tohir Malik gurunglari. O‘zbekiston NMIU, 2016.